

**OLIV TA'LIM TIZIMI KADRLARINI QAYTA TAYYORLASH VA
MALAKASINI OSHIRISH INSTITUTI HUZURIDAGI ILMIY
DARAJALAR BERUVCHI PhD.03/2025.27.12.Ped.33.01 RAQAMLI
ILMIY KENGASH**

CHIRCHIQ DAVLAT PEDAGOGIKA UNIVERSITETI

SAYIDOVA MUXTARAM XAMIDULLAYEVNA

**TA'LIMNI RAQAMLASHTIRISH SHAROITIDA BO'LAK
TEKNOLOGIYA O'QITUVCHILARINI KASBIY FAOLIYATGA
TAYYORLASH JARAYONLARINI TAKOMILLASHTIRISH**

13.00.01 – Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi.

**PEDAGOGIKA FANLARI BO'YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

Toshkent – 2026

**Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD)
по педагогическим наукам**

**Content of dissertation abstract of doctor of philosophy (PhD)
on pedagogical sciences**

Sayidova Muxtaram Xamidullayevna

Ta'limni raqamlashtirish sharoitida bo'lajak texnologiya o'qituvchilarini kasbiy faoliyatga tayyorlash jarayonlarini takomillashtirish..... 3

Сайидова Мухтарам Хамидуллаевна

Совершенствование процессов подготовки будущих учителей технологии к профессиональной деятельности в условиях цифровизации образования 23

Sayidova Mukhtaram Khamidullaevna

Improving the processes of preparing future technology teachers for professional activities in the context of digitalization of education..... 45

E'lon qilingan ishlar ro'uxati

Список опубликованных работ

List of published works..... 49

**OLIV TA'LIM TIZIMI KADRLARINI QAYTA TAYYORLASH VA
MALAKASINI OSHIRISH INSTITUTI HUZURIDAGI ILMIY
DARAJALAR BERUVCHI PhD.03/2025.27.12.Ped.33.01 RAQAMLI
ILMIY KENGASH**

CHIRCHIQ DAVLAT PEDAGOGIKA UNIVERSITETI

SAYIDOVA MUXTARAM XAMIDULLAYEVNA

**TA'LIMNI RAQAMLASHTIRISH SHAROITIDA BO'LAK
TEKNOLOGIYA O'QITUVCHILARINI KASBIY FAOLIYATGA
TAYYORLASH JARAYONLARINI TAKOMILLASHTIRISH**

13.00.01 – Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi.

**PEDAGOGIKA FANLARI BO'YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

Toshkent – 2026

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2025.2.PhD/Ped9861 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya Chirchiq davlat pedagogika universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengashning veb-sahifasida (www.bimm.uz) va "ZiyoNet" Axborot ta'lim portalida (www.ziynet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:

Djumabayev G'ulomjon Xalillayevich
texnika fanlari doktori, professor v/b

Rasmiy opponentlar:

Ismailova Zuxra Karabayevna
pedagogika fanlari doktori, professor

Axrorova Umida Hamidullayevna
pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Yetakchi tashkilot:

Nizomiy nomidagi O'zbekiston milliy pedagogika universiteti

Dissertatsiya himoyasi Oliy ta'lim tizimi kadrlarini qayta tayyorlash va malakasini oshirish instituti huzuridagi PhD.03/2025.27.12.Ped.33.01 raqamli Ilmiy kengashning 2026-yil 25 " 03 soat 14.00 dagi majlisida bo'lib o'tadi (Manzil: 100095, Toshkent shahri, Olmazor tumani, Ziyo ko'chasi, 3-uy. Tel.: (+99871) 202-01-20, faks: (+99871) 202-01-21, e-mail: info@bimm.uz).

Dissertatsiya bilan Oliy ta'lim tizimi kadrlarini qayta tayyorlash va malakasini oshirish institutining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (29 -raqam bilan ro'yxatga olingan). Manzil: 100095, Toshkent shahri, Olmazor tumani, Ziyo ko'chasi, 3-uy. Tel.: (+99871) 202-01-20, faks: (+99871) 202-01-21.

Dissertatsiya avtoreferati 2026-yil 26 " 02 kuni tarqatildi.
(2026-yil 26 " 02 dagi 27 -raqamli reestr bayonnomasi).



U.Sh.Begimkulov
darajalar beruvchi
Ilmiy kengash raisi,
p.f.d., professor

A.S.Djurayev
darajalar beruvchi Ilmiy
kengash kotibi, p.f.d. (DSc), dotsent

Ya.U.Ismadiyarov
Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy
kengash qoshidagi ilmiy
seminar raisi, p.f.d. (DSc), professor

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahon ta'lim tizimi amaliyotida o'quvchilarning texnik va amaliy ko'nikmalarini rivojlantirish orqali ularni hayotiy va kasbiy vaziyatlarga tayyorlashning barqaror tendensiyalari kuzatilmoqda. Shu sababdan ta'lim sifati va darajasini baholashga qaratilgan xalqaro tashabbuslar alohida ahamiyat kasb etmoqda. Ularning orasida Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkiloti (OECD) dasturlari, xususan PISA (The Programme for International Student Assessment - o'quvchilarning ta'limdagi yutuqlarini baholash xalqaro dasturi) va PIRLS (Progress in International Reading Literacy Study - matni o'qish va tushunish darajasini baholovchi xalqaro dastur) alohida ajralib turadi. Pedagogika nazariyasi va amaliyotida "Lifelong learning" konsepsiyasi doirasida ta'lim oluvchilarda kreativ fikrlash ko'nikmalarini hamda kasbiy vazifalarni mustaqil hal qilish qobiliyatini shakllantirish dolzarb masalaga aylanmoqda. Globallashtirish sharoitida ta'lim jarayonining zamonaviy mehnat bozori ehtiyojlariga mos kelishini ta'minlaydigan innovatsion ta'lim texnologiyalarini ishlab chiqish va joriy etish alohida ahamiyatga ega. Bu texnologiyalar YUNESKOning ta'lim, fan va madaniyatni rivojlantirishga qaratilgan "Texnikaviy va kasb-hunar ta'limi to'g'risida"gi Konvensiyasi (Convention on Technical and Vocational Education) talablariga muvofiq amalga oshirilmoqda. Shunday qilib, zamonaviy pedagogik va raqamli texnologiyalarni joriy qilish ta'lim oluvchilarda kasbiy fikrlash, ijodiy yaratuvchanlik va raqamli jamiyat talablariga moslashish qobiliyatini shakllantirishga qaratilgan.

Dunyoning bir qator rivojlangan mamlakatlarida ta'lim oluvchilarning shaxsiy va kasbiy sifatlarini rivojlantirish, ta'limni raqamlashtirish sharoitida bo'lajak texnologiya o'qituvchilarini tayyorlashni takomillashtirishga bag'ishlangan ilmiy tadqiqotlar olib borilmoqda. Ushbu tadqiqotlar doirasida talabalarda o'quv motivatsiyasi, mustaqil fikrlash, o'z-o'zini faollashtirish kabi kognitiv va refleksiv kompetensiyalarni shakllantirishga yordam beradigan zamonaviy didaktik vositalar va elektron axborot resurslarini joriy etishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Mazkur kompetensiyalarning ahamiyati bo'lajak texnologiya o'qituvchilari uchun kasbiy tayyorgarlik jarayonining hal qiluvchi tarkibiy qismi sifatida qaraladi, ularning raqamli ta'lim makonida faoliyati samaradorligini ta'minlaydi.

Respublikamizda so'ngi yillarda bo'lajak texnologiya o'qituvchilarini tayyorlash jarayonlarini takomillashtirish, mustaqil va erkin fikrlaydigan, raqobatbardosh kadrlarni shakllantirishning me'yoriy-huquqiy asoslari yaratilmoqda. "Uzluksiz ta'lim tizimini yanada takomillashtirish, sifatli ta'lim xizmatlari imkoniyatlarini oshirish va mehnat bozorining zamonaviy ehtiyojlariga muvofiq yuqori malakali kadrlar tayyorlash siyosatini davom ettirish"¹ ustuvor vazifalar etib belgilangan. Bu vazifalar ta'limni raqamlashtirish sharoitida alohida dolzarblik kasb etmoqda, chunki bo'lajak texnologiya o'qituvchilarining nazariy-

¹ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni, 2017-yil 07-fevraldagi PF-4947-son. O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida.

pedagogik kompetensiyalarini rivojlantirish va ularni kasbiy faoliyatga tayyorlash uchun samarali shart-sharoitlarini yaratishni talab qiladi.

Mazkur tadqiqot O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining va Vazirlar Mahkamasining bir qator farmonlari va qarorlarida, shu jumladan 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son “2022-2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi, 2020-yil 5-oktyabrdagi PF-6079-son “Raqamli O‘zbekiston-2030” strategiyasini tasdiqlash va uni samarali amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi, 2019-yil 8-oktyabrdagi PF-5847-son “O‘zbekiston Respublikasi oliy ta‘lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi farmonlari va 2022-yil 21-iyundagi PQ-289-son “Pedagogik ta‘lim sifatini oshirish va pedagog kadrlar tayyorlovchi oliy ta‘lim muassasalari faoliyatini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori belgilangan vazifalarni amalga oshirishga yordam beradi. Ko‘rsatilgan me‘yoriy hujjatlarni amalga oshirish pedagogik ta‘lim tizimini takomillashtirish va ta‘lim jarayonini raqamlashtirish sharoitlarida samarali faoliyat ko‘rsatishga layoqati bo‘lgan yuqori malakali texnologiya o‘qituvchilarini tayyorlashga qaratilgan.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining asosiy ustuvor yo‘nalishlariga mosligi. Mazkur tadqiqot respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining I. “Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma‘naviy-ma‘rifiy rivojlantirishda, innovatsion g‘oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo‘llari” ustuvor yo‘nalishi doirasida bajarilgan.

Muammoning o‘rganilganlik darajasi. Bo‘lajak texnologiya fani o‘qituvchilarini raqamlashtirish sharoitida kasbiy faoliyatga tayyorlash masalalari ham mamlakatimiz, ham xorijiy davlatlarda faol o‘rganilmoqda. O‘zbekiston olimlari, jumladan A.Abduqodirov, U.Sh.Begimkulov, A.Bakiyev, N.A.Muslimov, Ya.U.Ismadiyarov, Z.Yusupova, A.Axmedov, B.Nuraliyev, N.I.Taylaqov, O.To‘raqulov, N.Sh.Shodiyev, Yu.Choriyev, R.H.Jo‘rayev va A.H.Karimovning vning tadqiqotlarida bo‘lajak pedagoglarning kasbiy va shaxsiy kompetensiyalarini shakllantirish masalalari asosiy pedagogik muammo sifatida ko‘rib chiqilgan.

Mustaqil Davlatlar Hamdo‘stligi (MDH) mamlakatlarida texnologik ta‘limning umumiy muammolariga e‘tibor qaratilgan bo‘lib, bu masalalar V.M.Juchkov, N.V.Zelenko, A.A.Kalekin, V.A.Kurina, K.E.Romanova va A.N.Sergeevning asarlarida aks ettirilgan. Shuningdek, L.G.Axmetov, A.N.Bogatirev, G.N.Nekrasova, N.N.Novikova, Yu.L.Xotunsev va R.M.Chudinskiylarning tadqiqotlarida ta‘lim jarayonini tashkil etish va ta‘lim texnologiyalarini joriy etishga zamonaviy yondashuvlar o‘rganilgan.

Xorijiy pedagogika fanida “Texnologiya” fanini takomillashtirish va bo‘lajak pedagoglarni tayyorlash masalalari A.Eberhard, T.Anderson, R.W.Bybee, S.H.Chen, C.Dede, S.Downes, M.Fullan, L.Harasim, A.P.Jagadeesh Chandra, C.Kuhlthau, C.Kent, D.Laurillard, R.Mayer, P.Mishra, M.B.Naumovic, J.Nuttin, A.Picciano, G.Tibbits, Z.Zhizhou kabi olimlar tomonidan tadqiq qilingan. Ularning

ishlarida raqamlashtirish sharoitida texnologik ta'limning zamonaviy konseptual va metodologik asoslarini ishlab chiqishga alohida e'tibor qaratilgan.

Shunday qilib, mavjud tadqiqotlarning tahlili bo'lajak texnologiya fani o'qituvchilarini tayyorlash masalasining fanlararo va pedagogika fanining dolzarb muammosi ekanligini, shuningdek, ta'lim texnologiyalari hamda mehnat bozorining zamonaviy talablarini hisobga olgan holda keyingi izlanishlarni talab qilishini ko'rsatadi.

Tadqiqotning dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi. Dissertatsiya tadqiqoti Chirchiq davlat pedagogika universitetining ilmiy tadqiqot ishlari rejasiga muvofiq "Pedagogik ta'lim innovatsion klasterining ilmiy-nazariy asoslari va amalga oshirish mexanizmlari" (2018-2023) mavzusidagi ilmiy amaliy loyiha doirasida bajarilgan. Amalga oshirilgan tadqiqot mazkur loyiha doirasida belgilangan dolzarb vazifalarni hal qilishga qaratilgan va raqamlashtirish sharoitlarida pedagogik ta'limni rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlariga mos keladi.

Tadqiqotning maqsadi ta'limni raqamlashtirish sharoitida bo'lajak texnologiya o'qituvchilarini kasbiy faoliyatga tayyorlash jarayonlarini takomillashtirish bo'yicha tavsiyalarni nazariy asoslash, ishlab chiqish va ilmiy-metodik jihatdan asoslashdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

ta'limni raqamlashtirish sharoitida bo'lajak texnologiya o'qituvchilarini kasbiy faoliyatga tayyorlash imkoniyatlarini pedagogik jarayonlarning yaxlitligini ta'minlash asosida kengaytirish;

bo'lajak texnologiya o'qituvchilarini kasbiy faoliyatga tayyorlash jarayoni modelini kibernetik o'quv topshiriqlar uyg'unligini kvalimetrik nisbatda ta'minlash asosida takomillashtirish;

kasbiy faoliyatga tayyorlash jarayonlarini elektron ta'lim kontentlari bo'yicha informal qayta ishlash asosida takomillashtirish;

bo'lajak texnologiya o'qituvchilarini kasbiy faoliyatga tayyorlash samaradorligini pedagogik vaziyatlarni obyektiv baholash asosida aniqlashtirish.

Tadqiqotning obyekti sifatida ta'limni raqamlashtirish sharoitida bo'lajak texnologiya o'qituvchilarini kasbiy faoliyatga tayyorlash jarayonlari belgilangan. Tajriba-sinov ishlarida Chirchiq davlat pedagogika universiteti, Navoiy davlat universiteti va Qo'qon davlat pedagogika instituti talabalari ishtirok etdi.

Tadqiqotning predmetini ta'limni raqamlashtirish sharoitida bo'lajak texnologiya o'qituvchilarini kasbiy faoliyatga tayyorlash jarayonlarini takomillashtirishning shakl, metod va vositalari tashkil qiladi.

Tadqiqotning usullari. Tadqiqotda nazariy va empirik usullar majmuasidan foydalanilgan. Nazariy usullar texnologiya o'qituvchilarini tayyorlashga oid ilmiy adabiyotlar va hujjatlarni o'rganish va tizimlashtirish, pedagogik konsepsiya va modellarni tahlil qilish, sintezlash va qiyoslash, ta'limni raqamlashtirish sharoitlarida bo'lajak texnologiya o'qituvchilarini tayyorlash jarayonlarini pedagogik modellashtirishdan iborat. Empirik usullar – ba tadqiqot ishtirokchilarini anketalash, testlash, so'rov o'tkazish, pedagogik eksperiment

natijalariga ishlov berish va ishlab chiqilgan tavsiyalar samaradorligini baholash uchun matematik-statistik usullardir.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

ta'limni raqamlashtirish sharoitida bo'lajak texnologiya o'qituvchilarini tayyorlashning pedagogik imkoniyatlari kasbiy faoliyatga tayyorgarlik tuzilmasining motivatsion, kommunikativ, ijodiy, gnostik komponentlarini raqamli texnologiyalar bilan bevosita va bilvosita qayta aloqali munosabatni ta'minlash asosida bosqichma-bosqich kengaytirilgan;

ta'limni raqamlashtirish sharoitida bo'lajak texnologiya o'qituvchilarini kasbiy faoliyatga tayyorlash modeli raqamli kompetensiyalarning ustuvorligi hamda o'quv-bilish faoliyat bosqichlarining ishlab chiqarish jarayoni bilan kvalimetrik bog'liqligidan kelib chiqqan holda raqamli kompetensiyalarga Spin-off ustuvorlik berish asosida takomillashtirilgan;

ta'limni raqamlashtirish sharoitida bo'lajak texnologiya o'qituvchilarini kasbiy faoliyatga tayyorlash jarayonlari texnologik-integratsion, didaktik-kommunikatsion, raqamli-metodik resurslarni ta'limiy maqsadlarga mos muvofiqlashtirish hamda elektron ta'lim kontentlarini informal qayta ishlash, fikrlash va raqamli savodxonlik kompetensiyalarini bevosita hisobga olish asosida takomillashtirilgan;

ta'limni raqamlashtirish sharoitida bo'lajak texnologiya o'qituvchilarini kasbiy faoliyatga tayyorlash samaradorligi tanqidiy fikrlash, pedagogik-psixologik hamkorlik, subyekt-subyekt aloqadorlik tamoyillari hamda raqamli tendensiya va texnologiyalarga oid mantiqiy tasavvurlarni fikran sintezlash orqali maqbul diagnostik vositalar asosida aniqlashtirilgan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

“Metrologiya, standartlashtirish va sertifikatsiyalashtirish” va “Robototexnika asoslari” fanlarining ta'limni raqamlashtirish sharoitlariga moslashtirilgan o'quv-metodik ta'minoti ishlab chiqilgan va amaliyotga joriy etilgan;

ta'limni raqamlashtirish sharoitida bo'lajak texnologiya o'qituvchilarini kasbiy faoliyatga tayyorlash samaradorligini baholash imkoniyatini beradigan diagnostik vositalari ishlab chiqilgan;

ta'limni raqamlashtirish sharoitida bo'lajak texnologiya o'qituvchilarini kasbiy faoliyatga tayyorlashni tashkil qilish va takomillashtirishga doir uslubiy tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi qo'llanilgan yondashuv va usullarning ilmiy-metodik jihatdan asoslanganligi, tadqiqotning metodologik bazasi ta'minlanganligi, nazariy ma'lumotlarning rasmiy manbalardan olinganligi bilan belgilanadi. Pedagogik eksperimentni o'tkazish uchun tanlangan eksperimental guruhining reprezentativligi natijalar ishonchliligining muhim omili hisoblanib, bu to'g'ri umumlashmalar qilish imkonini beradi. To'plangan empirik ma'lumotlarning aniqligi va ishonchliligi anketalash, testlash va so'rovlarning tizimlashtirilgan usullarini qo'llash hamda olingan ma'lumotlarga matematik statistika usullaridan foydalagan holda ishlov berish orqali ta'minlanadi. Tadqiqot

natijalarining ishonchiligi xulosa, taklif va tavsiyalarning ta'lim tashkilotlari amaliyotiga joriy qilinganligi bilan tasdiqlanadi, bu esa, o'z navbatida, ularning vakolatli davlat tuzilmalari tomonidan tasdiqlanganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati ta'limni raqamlashtirish sharoitida bo'lajak texnologiya o'qituvchilarini kasbiy faoliyatga tayyorlash jarayonlarini takomillashtirishning nazariy, amaliy, metodik, didaktik, texnologik ko'rsatkichlari, darajalari va baholash mezonlari o'rganilgani bilan izohlanadi. Olingan natijalar pedagogik nazariyaning rivojlanishiga hissa qo'shadi, pedagogik kadrlarni tayyorlash modellari haqidagi tasavvurlarni kengaytiradi hamda raqamli texnologiyalarni ta'lim jarayoniga integratsiyalashga metodik yondashuvlarni asoslash imkoniyatini beradi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati ishlab chiqilgan o'quv-metodik ta'minot va elektron ta'lim resurslaridan ta'limni raqamlashtirish sharoitlarida bo'lajak texnologiya o'qituvchilarni tayyorlashning metodik shart-sharoitlarini takomillashtirishda foydalanish mumkinligida ifodalanadi. Tadqiqot natijalaridan "Metrologiya, standartlashtirish va sertifikatsiyalashtirish" va "Robototexnika asoslari" fanlaridan darslik, o'quv dasturlarini ishlab chiqishda, shuningdek pedagogik OTMLar va kolledjlar amaliy faoliyatida foydalanish mumkinligi bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Ta'limni raqamlashtirish sharoitida bo'lajak texnologiya o'qituvchilarini kasbiy faoliyatga tayyorlash jarayonlarini takomillashtirish bo'yicha o'tkazilgan tadqiqot natijalari asosida:

ta'limni raqamlashtirish sharoitida bo'lajak texnologiya o'qituvchilarini tayyorlashning pedagogik imkoniyatlari kasbiy faoliyatga tayyorgarlik tuzilmasining motivatsion, kommunikativ, ijodiy, gnostik komponentlarini raqamli texnologiyalar bilan bevosita va bilvosita qayta aloqali munosabatni ta'minlash asosida bosqichma-bosqich kengaytirishga doir nazariy xulosa va amaliy tavsiyalar "Metrologiya, standartlashtirish va sertifikatsiyalashtirish" nomli darslik mazmuniga singdirilgan (Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy ta'limni rivojlantirish tadqiqotlari markazining 2025-yil 19-maydagi 02/01-01-174-son ma'lumotnomasi). Natijada, ta'limni raqamlashtirish sharoitida bo'lajak texnologiya o'qituvchilarini kasbiy faoliyatga tayyorlashda pedagogik jarayonlarning yaxlitligi ta'minlangan;

ta'limni raqamlashtirish sharoitida bo'lajak texnologiya o'qituvchilarini kasbiy faoliyatga tayyorlash modeli raqamli kompetensiyalarning ustuvorligi hamda o'quv-bilish faoliyat bosqichlarining ishlab chiqarish jarayoni bilan kvalimetrik bog'liqligidan kelib chiqqan holda raqamli kompetensiyalarga Spin-off ustuvorlik berish asosida takomillashtirishga qaratilgan tavsiyalar "Robototexnika asoslari" nomli darslik mazmuniga singdirilgan (Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy ta'limni rivojlantirish tadqiqotlari markazining 2025-yil 19-maydagi 02/01-01-174-son ma'lumotnomasi). Natijada, ta'limni raqamlashtirish sharoitida bo'lajak texnologiya o'qituvchilarini kasbiy faoliyatga tayyorlash modelini takomillashtirish imkoniyati kengaytirilgan;

ta'limni raqamlashtirish sharoitida bo'lajak texnologiya o'qituvchilarini kasbiy faoliyatga tayyorlash jarayonlari texnologik-integratsion, didaktik-kommunikatsion, raqamli-metodik resurslarni ta'limiy maqsadlarga mos muvofiqlashtirish hamda elektron ta'lim kontentlarini informal qayta ishlash, fikrlash va raqamli savodxonlik kompetensiyalarini bevosita hisobga olish asosida takomillashtirishga doir ilmiy-nazariy qarashlar "O'zbekiston" telekanalining "Munosabat" tok-shousi ssenariylarini yozishda foydalanilgan (O'zbekiston milliy teleradiokompaniyasi "O'zbekiston 24" ijodiy birlashmasi" davlat muassasasining 2025-yil 5-iyundagi 05-09-834-son ma'lumotnomasi). Natijada, ta'limni raqamlashtirish sharoitida bo'lajak texnologiya o'qituvchilarini kasbiy faoliyatga tayyorlashda axborotlashtirilgan ta'lim muhitini yaratish orqali ta'lim jarayonining ko'rgazmaliligini va ta'limni tashkil etishni optimallashtirish muhitini yaratishga xizmat qilgan;

ta'limni raqamlashtirish sharoitida bo'lajak texnologiya o'qituvchilarini kasbiy faoliyatga tayyorlash samaradorligi tanqidiy fikrlash, pedagogik-psixologik hamkorlik, subyekt-subyekt aloqadorlik tamoyillari hamda raqamli tendensiya va texnologiyalarga oid mantiqiy tasavvurlarni fikran sintezlash orqali maqbul diagnostik vositalar asosida aniqlashtirish bo'yicha taklif va tavsiyalar "Metrologiya, standartlashtirish va sertifikatsiyalashtirish" nomli darslik mazmuniga singdirilgan (Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy ta'limni rivojlantirish tadqiqotlari markazining 2025-yil 19-maydagi 02/01-01-174-son ma'lumotnomasi). Natijada, ta'limni raqamlashtirish sharoitida bo'lajak texnologiya o'qituvchilarini kasbiy faoliyatga tayyorlash samaradorligini oshirishga erishilgan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Mazkur tadqiqot natijalari 3 ta xalqaro va 3 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarda muhokamadan o'tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi. Dissertatsiya mavzusi bo'yicha jami 22 ta ilmiy ish, shu jumladan, 2 ta darslik, Oliy attestatsiya komissiyasi tomonidan doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan nashrlarda 7 ta maqola, jumladan, 3 tasi respublika va 4 tasi xorijiy jurnallarda chop etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya kirish, uchta bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati va ilovalardan iborat. Dissertatsiya hajmi 147 betni tashkil etadi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Dissertatsiyaning **kirish** qismida tadqiqot mavzusining dolzarbligi va zarurati asoslangan, respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining asosiy ustuvor yo'nalishlariga mosligi ko'rsatilgan, mavzu bo'yicha xorijiy ilmiy tadqiqotlar sharhi va muammoning o'rganilganlik darajasi yoritilgan. Tadqiqotning maqsad va vazifalari, obykti va predmeti aniqlangan, tadqiqot usullari, ilmiy yangiligi va amaliy natijalari bayon qilingan, ularning ishonchliligi, ilmiy va amaliy ahamiyati asoslab berilgan, tadqiqot natijalarining amaliyotga joriy etilganligi, aprobatsiyasi,

e'lon qilinganligi, dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi bo'yicha ma'lumotlar berilgan.

Dissertatsiyaning **“Bo'lajak texnologiya o'qituvchilarini ta'limni raqamlashtirish sharoitiga tayyorlashning nazariy asoslari”** deb nomlangan birinchi bobida ta'limni raqamlashtirish sharoitida bo'lajak texnologiya o'qituvchilarini kasbiy faoliyatga tayyorlashning pedagogik imkoniyatlari, mezonlari va omillari, shuningdek ta'limni raqamlashtirish sharoitida talabalarning emperik, mantiqiy hamda intuitiv bilish ko'nikmalarini rivojlantirishning ilmiy-amaliy jihatlari tahlil qilingan.

Tadqiq qilinayotgan muammo bo'yicha ilmiy adabiyotlarning o'tkazilgan tahlili bugungi kunda ta'limni raqamlashtirish sharoitida bo'lajak texnologiya o'qituvchilarining kasbiy faoliyatga tayyorlashda talabalarning o'quv motivatsiyasi, mustaqil fikrlash, o'z-o'zini faollashtirish kabi kognitiv va refleksiv qobiliyatlarini shakllantirish jarayoniga zamonaviy didaktik vositalar va elektron axborot resurslarni joriy etish, ularning ta'lim vositasi sifatidagi ahamiyatini belgilash bilan bog'liq masalalar pedagogik ta'limning dolzarb vazifalari sifatida qaralmoqda. Shu sababli ta'limni raqamlashtirish sharoitida bo'lajak texnologiya o'qituvchilarini kasbiy faoliyatga tayyorlash jarayonlarini takomillashtirish, erkin fikrlash ko'nikmasini rivojlantirish va amaldagi metodlar, vositalar asosida rivojlantirish hamda amaliyotga joriy etish borasida ilmiy-amaliy tadqiqotlarni amalga oshirish zarurati ortmoqda.

Ta'limni raqamlashtirish sharoitida bo'lajak texnologiya o'qituvchilarini kasbiy faoliyatga tayyorlashning asosiy vazifalaridan biri kasbiy bilimlarni mustaqil ravishda egallash, ulardan uslubiy jihatdan mos pedagogik dasturiy ta'minotni ishlab chiqish va amalga oshirish uchun foydalanish ko'nikmalarini rivojlantirish uchun tegishli shart-sharoitlarni yaratishdir.

Hozirgi vaqtda *“raqamli texnologiyalar”* atamasi turli fan sohalarida keng qo'llanilib, mazmunan xilma-xil ta'riflarga ega. N.N.Novikova va L.G.Axmetov ta'rifiga ko'ra, raqamli texnologiyalar ta'lim jarayonini faollashtirish va optimallashtirish, shuningdek, axborotlashgan jamiyat sharoitida yashashga moslashgan shaxsni shakllantirishga xizmat qiluvchi samarali vosita hisoblanadi.

Raqamlashtirish - bu biznes jarayonlari, xizmatlar va modellarni, shuningdek hayotning turli sohalarini, shu jumladan davlat boshqaruvi va ta'limni o'zgartirish uchun raqamli texnologiyalarni joriy etish va ulardan foydalanish jarayoni. Keng ma'noda, bu o'zaro ta'sir va faoliyatning analogdan raqamli shakllariga o'tishdir.

Ta'limni raqamlashtirish — bu raqamli platformalar va raqamli vositalar yordamida ta'lim jarayonini tashkil etish hamda takomillashtirish jarayonidir. Mazkur jarayon ta'limning barcha bosqichlarida qo'llanilib, elektron ta'lim kontenti (multimedia materiallar, videodarslar, interaktiv simulyatsiyalar), masofaviy ta'lim platformalari (Moodle, Google Classroom, Microsoft Teams), sun'iy intellekt texnologiyalari, tahlil vositalari hamda boshqa raqamli resurslardan samarali foydalanishni nazarda tutadi. Ushbu tendensiya, avvalo, pedagogning raqamli savodxonligi, pedagogik-raqamli kompetensiyalari va innovatsion faoliyatini rivojlantirishni talab etadi.

Raqamli ta'lim muhiti - bu elektron resurslar, virtual platformalar, interaktiv vositalar, masofaviy o'qitish texnologiyalari va internet asosida qurilgan ta'lim makonidir. Unda o'qituvchi raqamli kontent tuzuvchi, ta'lim jarayonini raqamli boshqaruvchi va raqamli etikaga amal qiluvchi mutaxassis sifatida faoliyat yuritadi.

Ta'lim sohasidagi raqamli asrda axborot almashishning yangi usullarini joriy etish masalasi tobora dolzarb bo'lib bormoqda. Raqamli muhit va ijtimoiy tarmoqlar jamoat hayotining bog'lovchi bo'g'inidir, chunki bizning kundalik hayotimiz texnologik jihatdan jihozlanib bormoqda. Ta'limda internet va ijtimoiy tarmoqlardan foydalanish munosabatlarni demokratlashtirish, talabalarni o'quv jarayoniga jalb qilish imkoniyatlarini kengaytirish kabi ko'plab natijalarga olib keladi.

Ilmiy tadqiqotlarning tahlili shuni ko'rsatadiki, ta'limni raqamlashtirish jarayoni jadal rivojlanayotgan bugungi kunda ta'lim muassasalarida faoliyat yurituvchi texnologiya fani o'qituvchilarini raqamli muhit talablariga javob beradigan holda tayyorlash muhim ahamiyat kasb etmoqda. Bu tayyorgarlik samaradorligini ta'minlashda aniq mezonlar (kriteriyalar) va omillar (faktorlar)ni ilmiy jihatdan asoslab belgilab olish zarur. Ular ta'lim sifatini baholash, rejalashtirish va pedagogik jarayonni takomillashtirishda mezon sifatida xizmat qiladi.

Ta'limni raqamlashtirish sharoitida bo'lajak texnologiya o'qituvchilarini kasbiy faoliyatga tayyorlashda quyidagi pedagogik imkoniyatlar mavjud:

1. *Ta'lim muhitini individuallashtirish* - raqamli muhit har bir talabaga moslashgan ta'lim traektoriyasini shakllantirish imkonini beradi;

2. *Interaktivlik* - raqamli texnologiyalar o'quv jarayonini vizual va audio komponentlar bilan boyitib, bilimni yaxshiroq o'zlashtirishga xizmat qiladi;

3. *Amaliy mashg'ulotlarni modellash* - simulyator va virtual laboratoriyalar orqali talabalar kasbiy kompetensiyalarini real sharoitda shakllantirishi mumkin;

4. *Ta'lim jarayonini avtomatlashtirish va monitoring qilish* - reyting tizimlari, testlar va boshqa baholash vositalari orqali aniq tahlil yuritish imkoni;

5. *Ijodiylik va mustaqil izlanish faoliyatini qo'llab-quvvatlash* - raqamli muhit talabalarning mustaqil ishlash qobiliyatini rivojlantiradi.

Bugungi kunda raqamlashtirilgan ta'lim muhitida texnologiya fani o'qituvchilarini kasbiy faoliyatga tayyorlashning ilmiy asoslangan mezonlari quyidagi talablar asosida shakllantirilmoqda: kompetentlikka asoslangan yondashuv, raqamli savodxonlikning barcha yo'nalishlarini qamrab olish, pedagogik va texnologik ko'nikmalar uyg'unligi va innovatsion faoliyatga tayyorlik darajasi. Ta'limda mezonlar orqali o'quvchi va o'qituvchilarning faoliyati baholanadi, kompetensiya darajalari aniqlanadi va ta'lim jarayoni samaradorligi o'lchanadi.

Bo'lajak texnologiya o'qituvchilarini kasbiy faoliyatga tayyorlashda asosiy mezonlarni quyidagi guruhlariga ajratish mumkin:

A) *Kasbiy-pedagogik mezonlar*: pedagogik kompetentlik - ta'lim jarayonini rejalashtirish, didaktik materiallarni tanlash va baholash mexanizmlarini bilish,

axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini pedagogik maqsadda qo'llash (TPACK modeli bo'yicha), o'quvchilarda raqamli savodxonlikni shakllantirish qobiliyati;

B) *Texnologik mezonlar*: raqamli vositalar bilan ishlash ko'nikmalari - Word, Excel, AutoCAD, Scratch, 3D-modellashtirish va boshqalar, masofaviy va gibrid ta'lim platformalaridan foydalanish - Moodle, Zoom, Google Classroom, multimediali o'quv resurslarni yaratish va tahrirlash;

C) *Ijodiy-amaliy mezonlar*: loyiha va muammoli o'qitish asosida o'quv kurslarini yaratish, STEAM yondashuvi asosida dars ishlanmalarini ishlab chiqish, innovatsion uskunalaridan foydalanish imkoniyatlarini bilish;

D) *Shaxsiy rivojlanish va refleksiya mezonlari*: o'z-o'zini baholash va refleksiya qilish qobiliyati, uzluksiz kasbiy o'sishga intiluvchanlik, raqamli etika, axborot xavfsizligiga rioya qilish.

Raqamli ta'lim muhitida texnologiya o'qituvchisidan pedagogik, texnologik, innovatsion va axloqiy kompetensiyalar talab etiladi. Bunda bo'lajak o'qituvchi raqamli vositalarni ta'limda maqsadli, samarali va ma'naviy-axloqiy talablarga mos holda qo'llashni bilishi lozim. Bo'lajak o'qituvchi texnik qurilmalar, dasturlar va zamonaviy texnologiyalardan samarali foydalanishni bilishi kerak.

Bugungi kunda raqamli texnologiyalar jamiyat hayotining barcha jabhalariga chuqur kirib borgan. Ayniqsa, ta'lim sohasida raqamlashtirish tendensiyasi ta'lim mazmuni, uslubi va subyektlarining rolini tubdan o'zgartirmoqda. Ta'lim jarayoni raqamli platforma, elektron resurs va raqamli vositalariga asoslanmoqda. Shu sababli, ta'lim muassasalarida faoliyat yuritadigan, ayniqsa, texnologiya fanini o'qitadigan bo'lajak mutaxassislar raqamli muhitga tayyor bo'lishi shart.

Bo'lajak texnologiya o'qituvchilarining raqamli muhitga tayyorgarligi - bu joriy va kelajakdagi raqamli ta'lim tizimidagi muvaffaqiyatli faoliyatning kafolatidir. Bu tayyorgarlik kasbiy bilimlarni chuqur egallash, raqamli vositalardan samarali foydalanish, yangi pedagogik metodlarni joriy etish hamda o'zini rivojlantirish va raqamli madaniyatga sodiqlik kabi ko'nikmalarni o'z ichiga oladi.

Shuning uchun pedagogika oliy ta'lim muassasalarida o'qituvchilarni raqamli muhitga tayyorlash strategiyasi aniq va izchil ishlab chiqilishi kerak.

Bo'lajak texnologiya o'qituvchilarini raqamli muhitga tayyorlashda ta'sir etuvchi omillar obyektiv va subyektiv shaklda tasniflanadi:

A) *Obyektiv omillar*: material-texnik baza – raqamli uskunalar, Wi-Fi, noutbuklar, smart-doska, VR vositalarning mavjudligi, uslubiy qo'llanmalar va elektron ta'lim resurslari, oliy ta'lim muassasasida raqamli infratuzilmaning shakllanishi.

B) *Subyektiv omillar*: o'qituvchi va talabalarining raqamli madaniyati darajasi, kasbiy motivatsiya va shaxsiy munosabat, o'z-o'zini rivojlantirishga bo'lgan qiziqish, ta'lim tizimida innovatsiyalarni qabul qilishga tayyorlik.

Bu omillar rag'batlantirilmasa, eng yaxshi texnologiya ham natija bermasligi mumkin. Shu bois, har bir omil hisobga olinishi va tadqiqotlar orqali chuqur o'rganilishi talab etiladi.

Bo'lajak texnologiya o'qituvchilarini ta'limni raqamlashtirish sharoitiga tayyorgarligini baholashda aniq mezonlar va ta'sir etuvchi omillarni belgilash

muhim ahamiyat kasb etadi. Bunday yondashuv ta'lim jarayonini individuallashtirish, raqobatbardosh kadrlar yetishtirish va raqamli iqtisodiyotga munosib mutaxassislar tayyorlash imkonini beradi.

Zamonaviy texnologik ta'limda talabalar faqat tayyor bilimni o'zlashtiruvchilar emas, balki ilmiy muammolarni mustaqil hal qila oladigan ijodiy shaxslar sifatida shakllanishlari zarur. Bu esa ularning empirik, mantiqiy va intuitiv bilish ko'nikmalarini uyg'unlashtirishni talab qiladi.

Empirik bilish – bu real hayotdan, tajriba va kuzatishlar orqali olinadigan bilimdir. Texnologik ta'limda empirik bilish muhim rol o'ynaydi, chunki u modellashtirish, amaliy mashg'ulotlar, tajriba sinovlari va laboratoriya ishlari asosida amalga oshiriladi.

Mantiqiy bilish – tahlil, solishtirish, umumlashtirish va sabab-oqibat munosabatlarini aniqlash orqali bilim hosil qilish jarayonidir. Texnologik fanlar, ayniqsa informatika, elektr mexanika, mexatronika kabi sohalar mantiqiy fikrlashni talab qiladi.

Intuitiv bilish – bu oldingi tajriba va bilimlarga tayanib, anglanmagan, tezkor qaror qabul qilish qobiliyatidir. Texnologik ta'limda bu ko'nikma dizayn fikrlash, muammoli loyihalarni tez baholash va ijodiy qaror qabul qilish jarayonlarida muhim.

Empirik, mantiqiy va intuitiv bilish jarayonlari texnologik ta'limning asosiy uch poydevoridir. Bu bilish shakllari orqali talabalar real dunyoni tushunadi (empirik), tahliliy fikrlaydi (mantiqiy), ijodiy va moslashuvchan fikr yuritadi (intuitiv).


O'zbek pedagogika ilmidagi yetakchi fikrlarga ko'ra, bilishning empirik, mantiqiy va intuitiv shakllarini alohida-alohida rivojlantirishdan ko'ra, ularni integratsiyalashgan hamda kompleks yondashuv asosida shakllantirish ta'lim samaradorligini oshirishga xizmat qiladi. Mazkur yondashuv raqamli ta'lim muhitida ta'lim mazmunining moslashuvchanligini ta'minlash, o'quv jarayonining individuallashtirilishi va differentsiallashtirishini kuchaytirish, shuningdek, kasbiy faoliyatga tayyor, keng qamrovli fikrlashga ega hamda innovatsion yondashuvni qo'llay oladigan mutaxassislarni tayyorlash imkonini beradi.

Bo'lajak texnologiya o'qituvchisining kasbiy faoliyatida ta'limni raqamlashtirish o'quv, metodik va amaliy faoliyatning to'g'ridan-to'g'ri uzviyligini ta'minlaydi, raqamli muhitda interaktiv, mustaqil va ijodiy ishlash salohiyatini rivojlantiradi, real mehnat bozoriga mos, innovatsion bilim va ko'nikmalarga ega kadrlarni tayyorlashga xizmat qiladi.

Dissertatsiyaning **“Ta'limni raqamlashtirish sharoitida bo'lajak texnologiya o'qituvchilarini kasbiy faoliyatga tayyorlash jarayonlari”** deb nomlangan ikkinchi bobida bo'lajak texnologiya o'qituvchilarini kasbiy faoliyatga tayyorlashdagi pedagogik muammoli vaziyatlar, ta'limni raqamlashtirish sharoitida bo'lajak texnologiya o'qituvchilarini kasbiy faoliyatga tayyorlash modeli hamda bo'lajak texnologiya o'qituvchilarini kasbiy faoliyatga tayyorlash jarayonlari yoritib berilgan.

Ta'limni raqamlashtirish sharoitida bo'lajak texnologiya o'qituvchilarini kasbiy faoliyatga tayyorlash jarayonlarini joriy etishning asosiy maqsadi tegishli shaxsiy salohiyatni rivojlantirishdir. Bu bir necha yo'nalishlarda ta'lim faoliyatini nazarda tutadi. *Birinchi*dan, kelajakdagi texnologiya o'qituvchisi zamonaviy raqamli texnologiyalarning ta'lim, fan va texnologiyadagi rolini tushunishi, ushbu sohalar mutaxassislarining kasbiy faoliyatining o'ziga xos xususiyatlarini bilishi va talabalarga yetkaza olishi kerak. *Ikkinchi*dan, texnologiya o'qituvchisi nafaqat axborot texnologiyalari, radioelektronika va elektrotexnika fanlari sohasidagi kompetensiyalarga, balki mikroprotsessor texnologiyalari, qo'shimchalar texnologiyalari va boshqalar bilan ishlash texnologiyalariga ham ega bo'lishi kerak. *Uchinchi*dan, o'qituvchi texnologiya darslarida o'quvchilar uchun ko'rib chiqilayotgan sohalar bo'yicha kompetensiyalarni shakllantirishga imkon beradigan tegishli uslubiy tayyorgarlikka ega bo'lishi lozim. *To'rtinchi*dan, o'quvchilarni ijodiy faoliyatga jalb qilish kerak.

Shunday qilib, ta'limni raqamlashtirish sharoitida texnologiya fani o'qituvchilari ta'limini rivojlantirish ma'lum bir tarkibga asoslanishi kerak. Ushbu tarkib kasbga yo'naltirish, fan, uslubiy va ijodiy elementlarni o'z ichiga olishi kerak (1-rasm).



1-rasm. Raqamli texnologiyalar sharoitida texnologiya o'qituvchilarini tayyorlash mazmuni va uning tarkibi

Ushbu yo'nalishlar kasbiy tayyorgarlikning integral tizimini shakllantirib, ta'lim jarayonining barcha bosqichlarida raqamli texnologiyalarni qo'llash ko'nikmalarini mustahkamlaydi. Shu bilan birga, bo'lajak texnologiya fani o'qituvchilari zamonaviy raqamli muhitda samarali faoliyat yuritish uchun zarur bo'lgan shaxsiy va kasbiy kompetensiyalarga ega bo'ladilar. Mazkur tarkib bo'lajak texnologiya o'qituvchilarida kasbiy faoliyatga tayyorgarlik, shaxsiy salohiyat va ijodiy yondashuv ko'nikmalarini shakllantirishga yo'naltirilgan.

Raqamli texnologiyalar sharoitida texnologiya o'qituvchilarining shaxsiy salohiyatini rivojlantirish konsepsiyasiga asoslanib, uning modelini ishlab chiqish kerak, bu esa ishlab chiqilayotgan modelning tuzilishini va uning tarkibiy qismlarining o'zaro bog'liqligini taqdim etish va tuzatishga imkon beradi. Biz

tomondan takomillashtirilgan modelning maqsadi – ta’limni raqamlashtirish sharoitida bo’lajak texnologiya o’qituvchilarini kasbiy faoliyatga tayyorlash jarayonlarini takomillashtirishdan iborat.

Mazkur model tarkibiga maqsadli, konseptual-asoslovchi, protsessual hamda diagnostik bloklar kiritilgan. Model har qanday tizim singari tashqi va ichki omillar ta’siri asosida shakllanadi va o’zaro bog’liq komponentlar majmuasidan iborat. Modelning tashqi tizimini belgilovchi omillar qatoriga ta’lim sohasiga oid normativ-huquqiy hujjatlar, umumiy o’rta ta’lim o’qituvchisining kasbiy standarti, shuningdek, ta’lim hamda raqamli texnologiyalarni rivojlantirish strategiyasini belgilovchi davlat dasturlari kiradi. Ushbu omillar modelning ijtimoiy-buyurtma va me’yoriy asoslarini belgilaydi. Ichki tizimni tashkil etuvchi omillar esa ishlab chiqilgan konsepsiyaning nazariy-metodologik poydevorini tashkil etuvchi umumdidaktik va xususiy-uslubiy tamoyillar tizimidan iborat. Mazkur tamoyillar modelning mazmuniy, tashkiliy hamda metodik yaxlitligini ta’minlaydi.


Modelning mazmuniy bloki ilg’or raqamli texnologiyalar yo’nalishlariga mos keluvchi o’quv fanlari va modullar orqali ifodalanadi. Jumladan, ular qatoriga texnologik jarayonlarni loyihalash va raqamli modellashtirish, raqamli dasturda boshqariladigan dastgohlar, metrologiya, standartlashtirish va sertifikatsiyalashtirish, robototexnika asoslari, raqamli dizayn va modellashtirish kiradi. Mazkur fanlar majmui bo’lajak texnologiya fani o’qituvchilarining zamonaviy raqamli muhitda kasbiy faoliyat yuritishiga zarur bo’lgan kompetensiyalarni shakllantirishga xizmat qiladi.

Modelni amalga oshirish uchun o’qitishning ma’lum usullari, shakllari va vositalari majmui talab etiladi. Ushbu komponentlar ta’limning protsessual asosini ta’minlab, bilim, ko’nikma va malakalarning kelajakdagi kasbiy faoliyat sohasiga uzluksiz o’tishini kafolatlaydi hamda talabalar orasida ehtiyoj va kasbiy motivatsiyani shakllantiradi.

Model tarkibiga diagnostik blok ham kiritilgan bo’lib, mazkur blok, odatda, xususiy metodik tizimlar doirasida qo’llaniladi. Modelning diagnostik bloki kontent (mazmuniy) blok tomonidan belgilangan — kasbiy yo’naltiruvchi, fan, metodik hamda ijodiy modullar kesimida — talabalarda shakllangan kompetensiyalarni aniqlash va baholash metodologiyasini o’z ichiga oladi. Bunday diagnostikani amalga oshirish uchun maxsus metodik vositalar (baholash mezonlari, indikatorlar, test va monitoring vositalari) zarur bo’ladi. Ularni ishlab chiqish esa alohida ilmiy-metodik vazifa sifatida qaraladi.

